

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.05/29.12.2023.Ped.48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**XUDOYBERDIYEVA SITORA NIZOMIDDIN QIZI**

**IXTISOSLIK FANLARIDAN O'QUV MATERIALLARNI ISHLAB  
CHIQUISH VA AMALDA TATBIQ ETISH METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии  
(PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy  
(PhD) on pedagogical sciences**

**Xudoyberdiyeva Sitora Nizomiddin qizi**

Ixtisoslik fanlaridan o‘quv materiallarni ishlab chiqish va amalda tatbiq etish metodikasini takomillashtirish.....3

**Xudoyberdieva Sitora Nizomiddin qizi**

Совершенствование методики разработки и внедрения учебных материалов по специальным дисциплинам.....23

**Xudoyberdiyeva Sitora Nizomiddin qizi**

Improvement of the methodology for the development and implementation of educational materials in special subjects.....45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....47

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.05/29.12.2023.Ped.48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**XUDOYBERDIYEVA SITORA NIZOMIDDIN QIZI**

**IXTISOSLIK FANLARIDAN O'QUV MATERIALLARNI ISHLAB  
CHIQISH VA AMALDA TATBIQ ETISH METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ped4651 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya (Phd) Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida ([www.ipitvet.uz](http://www.ipitvet.uz)) hamda «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Olimov Qahramon Tanzilovich**

pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ismoilova Zuxra Karabayevna**

pedagogika fanlari doktori, professor

**Qoysinov Odil Almurotovich**

pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Professional ta’limni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/29.12.2023.Ped.48.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «19» mart soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil:100095, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 76-uy. Tel.: (+99871) 246-92-17, faks: (+99871) 246-90-37, e-mail: [pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz](mailto:pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz))

Dissertatsiya bilan Professional ta’limni rivojlantirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil:100095, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 76-uy. Tel.: (+99871) 246-92-17, faks: (+99871) 246-92-17).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi)

**R.X. Djurayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., akademik

**S.Yu. Ashurova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, p.f.d., professor

**X.Sh. Kadirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d., dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda oliy ta'limni rivojlantirishga, ta'lim jarayonini zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minlashga, ilg'or tajribalar va texnologiyalar asosida o'quv materiallarini ishlab chiqishga, raqamli ta'lim resurslarini keng joriy etishga e'tibor berilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda nufuzli ilmiy tadqiqot markazlarining P.Debrai-Retzen "Talented Student Teacher Model" (Fransiya), US "Merit" (AQSH) kabi talim tizimlarida bu borada samarali faoliyat olib borilmoqda. Shuning uchun ham oliy ta'limni modernizatsiya qilishda innovatsion o'quv-metodik ta'minotni yaratish, raqamli ta'lim resurslarini ishlab chiqish va amalda joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda oliy ta'lim tizimi uchun zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqish hamda raqamli vositalardan foydalanib ta'lim jarayoni sifatini yaxshilash, o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash, mustaqil o'rganishga qaratilgan o'quv materiallarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari keng joriy qilinayotgan jamiyatda turli fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi ta'lim oluvchilar oldiga bilim, ko'nikma va malakalarni jadal egallash bilan bir qatorda o'zida muntazam va mustaqil ravishda o'rganish va izlanish kompetensiyalarini ham rivojlantirish vazifasini qo'yimoqda. Bu esa oliy ta'lim uchun mustaqil bilim olishga va o'rganishda imkoniyat beradigan, rivojlantiruvchi funksiyani amalga oshiradigan turli shakldagi zamonaviy o'quv materiallarini ishlab chiqish va amalda joriy etishni taqozo etmoqda.

Respublikamizda yuqori malakali, yetarli intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari, shuningdek, mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan kadrlarni tayyorlash bo'yicha, ta'lim jarayonini zamonaviy o'quv adabiyotlari va elektron ta'lim resurslari bilan ta'minlash bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni mutaxassislikka tayyorlashda ixtisoslik fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish, zamonaviy o'quv uslubiy adabiyotlarini yaratish, ta'lim jarayonining axborot metodik ta'minotini takomillashtirish, raqamlashtirish muhitida bilim olishga imkon beradigan raqamli vositalarni ishlab chiqish va amalda joriy etish ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarishda muhim hisoblanadi. Mamlakatimizda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, ta'lim jarayonini axborot metodik ta'minlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda texnika oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan ixtisoslik fanlari bo'yicha yangi o'quv adabiyotlarini yaratish, turli shakldagi samarali o'quv materiallarini va raqamli ta'lim resurslarini ishlab chiqish va amalda joriy etish dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli "2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"

to'g'risidagi Farmoni<sup>1</sup>, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 30-iyundagi PQ-5099-son "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2022-yil 22-avgustdagi 284-sonli buyrug'i, "O'quv adabiyotlarini yaratishga va ulardan oliy ta'lim muassasalarida foydalanishga qo'yiladigan talablarni belgilash" to'g'risidagi qarori, 2018-yil 20-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dissertatsiyaning nazariy g'oyalarini ishlab chiqishda mamlakatimiz olimlarining, jumladan, o'quv adabiyotlarini yaratish nazariyasi va amaliyoti bo'yicha B.Mirzaxmedov, A.R.Xodjabayev, M.Maxmudov, Q.T.Olimov<sup>2</sup>, R.Safarova, A.G'affarov, H.Saidovalar oliy ta'lim muassasalarida ixtisoslik fanlari bo'yicha elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish, o'quv jarayoniga axborot va kommunikatsion texnologiyalarni va raqamli resurslarni qo'llash bo'yicha A.A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov<sup>3</sup>, M.M.Aripov, N.I.Tayloqov, F.M.Zokirova, O.X.To'raqulov, J.A.Hamidov, H.Sh.Qodirov, A.X.Abdullayev, Sh.S.Ahrarov, N.A.Muslimov, M.Lutfullayev O.To'raqulov va boshqa olimlar ilmiy tadqiqotlari o'rganildi.

O'quv adabiyotlarini yaratish nazariyasi va metodikasi bo'yicha MDH olimlardan V.V.Kraevskiy<sup>4</sup>, I.YA.Lerner<sup>5</sup>, A.K.Kusainov, N.F.Talizina fundamental

<sup>1</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>; <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>; <https://lex.uz/ru/docs/-5032128>; <https://lex.uz/docs/-3249651>

<sup>2</sup> Olimov Q.T. Maxsus fanlardan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy-uslubiy asoslari. // Dis. ... ped. fan. dokt. – Toshkent: 2005. 286 b; Olimov Q.T., Mirzaxmedov B.N. Kasb-hunar ta'limi tizimida maxsus fanlardan o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish muammolari. // Uzluksiz ta'lim. 2004. №5. B. 22-26.

<sup>3</sup> Begimkulov U.SH. Oliy pedagogik ta'lim tizimiga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-pedagogik asoslari. Ped. fan. doktori dis. – Toshkent: TDPU, 2007. – 250 b

<sup>4</sup> Краевский, В.В. Общие основы педагогики: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – 2-е изд., испр. [Текст] // В.В. Краевский. – М.: Издательский центр "Академия", 2005. – 256 с.

<sup>5</sup> Лернер И.Я. Методологические проблемы дидактической теории построения учебника // Каким быть учебнику. Дидактические принципы построения. М., 1992. С. 12-13; Лернер И.Я., Шамаев Н.И. Каким был

tadqiqotlar olib borgan, elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish va foydalanish metodikasi borasida I.P.Tomina, A.S.CHirsov, E.A.Pervezenseva I.V.Morozova, M.V.Lapenok, A.V.Kartuzov, I.V.Voronina, V.V.Dovgan, E.S.Peskovalar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijiy mamlakatlarda o'quv materiallarini ishlab chiqish nazariyasi va metodikasi bo'yicha F.Jerar, K.Rojelar elektron ta'lim resurslari bilan bog'liq ilmiy izlanishlardan Ronald Ekyalimpa, S.Paul Maj, David Veal, J.M.Spector, D.Kegan, G.Kulanthaivel, J.Locard, F.Raymond, M.Rosenberg, M.Linard kabi olimlarning ishlarini keltirish mumkin.

Tadqiqot ishlarini o'rganish va tahlili shuni ko'rsatdiki, zamonaviy oliy ta'limda ixtisoslik fanlaridan turli shakldagi o'quv materiallarini ishlab chiqish va amalda joriy etish muammolari yetarli darajada o'rganilmaganligi hamda ilmiy tadqiqotlar olib borilmaganligi, shuningdek, ixtisoslik fanlaridan yaratiladigan o'quv adabiyotlarining funksiyalari va ularning mazmuniga, hamda tuzilishiga qo'yiladigan talablar davr talabi darajasida takomillashtirilmaganligi mavzuning dolzarb muammoga bag'ishlanganligini ko'rsatadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti xalqaro jahon banki tomonidan moliyalashtirilayotgan akademik innovatsiyalar fondining AIF 2/20-“Texnik yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlarida shaxsga yo‘naltirilgan innovatsion texnologiyalar asosida malakali muhandislarni tayyorlash sifatini va o‘qituvchilar malakasini oshirish“ mavzusidagi xalqaro loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan ixtisoslik fanlaridan turli shakldagi o'quv materiallarni ishlab chiqish va amalda joriy etish metodikasini takomillashtirishdan iborat

**Tadqiqot vazifalari:**

oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv adabiyotlarining yaratishning nazariy va ilmiy tadqiqotlar tahlilini o'tkazish asosida ixtisoslik fanlarining o'quv materialiga qo'yiladigan zamonaviy talablarni hamda funksiyalarini aniqlashtirish;

ixtisoslik fanlaridan turli shakldagi o'quv materiallarini ishlab chiqish imkoniyatlarini aniqlash;

oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan ixtisoslik fanlaridan ishlab chiqilgan turli shakldagi o'quv materiallaridan foydalanib o'qitish jarayoni modelini ishlab chiqish;

“Tikuv buyumlari texnologiyasi” fanidan yaratilgan turli shakldagi o'quv materiallarini amalda joriy etish metodikasini ishlab chiqish va pedagogik samaradorligini aniqlash bo'yicha tajriba-sinovni o'tkazish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida oliy ta'lim muassasalarida “Tikuv buyumlari texnologiyasi” fanini turli shakllarda ishlab chiqilgan o'quv materiallaridan foydalanib o'qitish jarayoni olingan.

**Tadqiqot predmetini** “Tikuv buyumlari texnologiyasi” fanini ishlab chiqilgan turli shakldagi o‘quv materiallaridan foydalanib o‘qitish mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot ishida mavzuga oid ilmiy tadqiqot va ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili; o‘quv jarayonini kuzatish, suhbat, so‘rovnoma, testlar o‘tkazish, ekspert baholash uslublari, pedagogik tajriba-sinov natijalariga matematik statistik uslublaridan foydalanib ishlov berish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

zamonaviy ta’lim talablari asosida ixtisoslik fanlardan yaratiladigan o‘quv adabiyotlarining rag‘batlantiruvchi, mustaqil o‘rganishga undovchi, o‘z-o‘zini boshqarish va ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi funksiyalari aniqlashtirilgan va ularning tuzilishi va mazmuniga qo‘yiladigan qo‘shimcha talablar ishlab chiqilgan;

ixtisoslik fanlarining o‘quv metodik ta’minoti tuzilmasi ishlab chiqilganligi va modulli, keys stadi, namunaviy, yo‘naltiruvchi, tayanch ma’ruza hamda raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqiladigan turli shakldagi o‘quv materiallarini ta’lim jarayonida samarali qo‘llash imkoniyatlari aniqlashtirilgan va asoslangan;

maqsadli, ilmiy, tashkiliy, jarayonli, baholash va natijaviy bloklardan tashkil topgan talabani mustaqil o‘rganish ko‘nikmasini va qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ixtisoslik fanlarini turli shakldagi o‘quv materiallaridan foydalanib o‘qitish jarayoni modeli ishlab chiqilgan va mazmuni asoslab berilgan;

oliy ta’lim muassasalarida “Tikuv buyumlari texnologiyasi” fanini modulli, namunaviy, keys stadi, yo‘naltiruvchi, tayanch ma’ruza va raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan o‘quv materialidan foydalanib o‘qitish metodikasi takomillashtirilgan hamda amalda joriy etilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“Yengil sanoat texnologiyasi” ta’lim yo‘nalishi uchun “Tikuv buyumlari texnologiyasi” va “Tikuv buyumlarini loyihalashtirishning avtomatlashtirilgan tizimi” elektron darsliklar yaratilgan va amalda joriy etilgan;

“Tikuv buyumlari texnologiyasi” ixtisoslik fanidan namunaviy, modulli, keys stadi, elektron o‘quv materiallari yaratilgan va o‘quv jarayoniga tatbiq qilingan;

oliy ta’lim muassasalari uchun bakalavriat talim yo‘nalishlari uchun “Ixtisoslik fanlaridan xorijiy tajribalarga asoslangan o‘quv materiallarini ishlab chiqish metodikasi” monografiyasidan, “Kiyimni loyihalashning avtomatlashgan tizimlari” o‘quv qo‘llanmasidan amalda foydalanilmoqda.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to‘plami, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan darsliklar va ular haqidagi retsenziyalar, respondentlar bilan o‘tkazilgan savol-javob, intervyular, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy ta’limda ixtisoslik fanlari bo‘yicha yaratiladigan zamonaviy



o'quv adabiyotlarining funksiyalari va ularga qo'yiladigan talablar aniqlashtirilganligi, ishlab chiqilgan turli shakldagi o'quv materiallaridan foydalanib, ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayoni modelini ishlab chiqilganligi va komponentlari ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi;

Amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida ixtisoslik fanini o'qitishda namunaviy, modulli, keys stadi o'quv materiallari va elektron ta'lim resurslari ishlab chiqilganligi va ularni amalda qo'llash metodikasi takomillashtirilganligi ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan ixtisoslik fanlaridan zamonaviy ta'lim talablari bo'yicha o'quv materiallarini ishlab chiqish va amalda joriy etish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar asosida:

Texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan ixtisoslik fanlaridan o'quv adabiyotlarini yaratish va o'quv materiallarini ishlab chiqishga oid takliflardan "Yengil sanoat texnologiyasi va jihozlari" bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv adabiyotlarini yaratishda, o'quv materiallarini va elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 4-oktabrdagi 4/17-311 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada ixtisoslik fanlarini zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratishga va o'qitish samaradorligini oshirishga erishilgan.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining grifti bilan hammualliflikda "Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari" bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun "Kiyimni loyihalashning avtomatlashgan tizimlari" fanidan o'quv qo'llanma yaratilgan hamda "Tikuv buyumlari texnologiyasi" fanidan namunaviy, modulli, keys stadi va sillabus o'quv materiallari ishlab chiqilgan va o'quv jarayoniga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 4-oktabrdagi 4/17-311 raqamli ma'lumotnomasi). Mazkur o'quv materiallari "Tikuv buyumlari texnologiyasi" fanini o'qitish jarayoni sifatini yaxshilashga xizmat qilgan.

"Yengil sanoat texnologiyasi va jihozlari" bakalavriat ta'lim ixtisoslik fanlaridan raqamli texnologiyalarga asoslangan o'quv materiallarini o'z ichiga olgan elektron darsliklar yaratilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi № DGU16648, № DGU 07089, № DGU 12586 raqamli guvohnomalari) va amalda joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 4-oktabrdagi 4/17-311 raqamli ma'lumotnomasi). Mazkur raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan o'quv materiallaridan foydalanish orqali ta'lim jarayoni axborot-metodik ta'minoti takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 10 ta maqola, jumladan 5 tasi Respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Shuningdek, ishlab chiqilgan dasturiy

mahsulotlar uchun davlat intellektual mulk agentligidan 2 ta guvohnoma olingan. 1 ta o'quv qo'llanma va 1 ta monografiya chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 138 sahifadan tashkil topgan.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning **“Oliy ta’limda ixtisoslik fanlaridan o’quv adabiyotlarini yaratishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ixtisoslik fanlaridan o’quv adabiyotlarini yaratish bo’yicha ilmiy tadqiqot ishlari tahlili, o’quv adabiyotlariga qo’yiladigan talablar va qo’shimcha funksiyalar, ixtisoslik fanlarining o’quv uslubiy ta’minoti hamda turli shakldagi o’quv materiallarini ishlab chiqish imkoniyatlari bayon etilgan.

Oliy ta’limni modernizatsiya qilish davrida innovatsion o’quv-uslubiy ta’minotini yaratish alohida ahamiyatga ega, chunki yangi ta’lim tizimida bitiruvchilarni kasbga tayyorlash jarayonida eng muhimi o’quv materialini mustaqil ravishda o’rganish talabini qo’ymoqda. Buning uchun talabalarni mustaqil ishlash uchun yetarli miqdordagi turli xil o’quv adabiyotlari bilan ta’minlamasdan yuqori sifatli o’qishga erishish mumkin emas.

Talabalarga taqdim etilayotgan darsliklar, o’quv qo’llanmalari va o’quv materiallari qanchalik xilma-xil bo’lsa, ularning darsdan tashqari ishlari shunchalik muvaffaqiyatli bo’ladi va ta’lim mazmunini o’zlashtirishiga ijobiy ta’sir qiladi. O’tkazilgan nazariy va amaliy izlanishlar natijasida, oliy ta’lim ixtisoslik fanlaridan talabalarda kerakli kasbiy kompetensiyani shakllantirish va ularga mustaqil o’rganishga imkon beruvchi hamda zamonaviy ta’lim talablariga javob beruvchi o’quv adabiyotlar va o’quv materiallarini yaratish muammosini tadqiq etish, ilmiy yechimlarini topish va amalda sinab ko’rish zaruriyatini ko’rsatdi.

Biz nazariy izlanishlarimiz doirasida o’quv adabiyotlarini yaratish muammolariga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini o’rgandik va olimlar fikrlarini tahlil qildik.

O’rganishlar shuni ko’rsatdiki, Oliy ta’lim o’quv adabiyotlari bilim va ko’nikmalarni ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil o’zlashtirib olinishiga samarali xizmat qilishi, o’quv materiallari bilimlarni o’zlashtirishning pedagogik va psixologik qonuniyatlarini hisobga olgan holda bayon qilinishi kerak.

Oliy ta’limda mutaxassislar tayyorlashda ta’lim jarayonini o’quv uslubiy ta’minot va o’quv adabiyotlarini yaratish, elektron ta’lim resurslarini ishlab chiqish bo’yicha fundamental va so’nggi ilmiy tadqiqot ishlarini o’rgandik.

Ilmiy tadqiqot ishlari tahlili shuni ko’rsatdiki, oliy ta’lim muassasalarida o’qitiladigan ixtisoslik fanlaridan o’quv adabiyotlar zamonaviy avlodini yaratish, turli shakldagi o’quv materiallarini ishlab chiqish va amalda joriy etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar deyarli olib borilmagan. Aksariyat tadqiqot ishlari axborot metodik ta’minotni takomillashtirishga va elektron ta’lim resurslarini ishlab chiqishga

qaratilgan. Bu esa tanlangan ilmiy muammoning bugungi kundagi dolzarbligidan dalolat beradi.

Tahlillar va nazariy o'rganishlar asosida shuni ta'kidlash joizki, oliy ta'limda malakali mutaxassis tayyorlash jarayonida talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish bilan bir qatorda ularni mustaqil ijodiy faoliyatga yo'naltirish hamda o'quv qiyinchiliklarini yengishga o'rgatish qaratilgan turli shakldagi o'quv materiallarini ishlab chiqish bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borishga e'tibor qaratish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Biz o'tkazgan izlanishlarimiz va tajribalarimizga tayanib, yuqoridagi funksiyalarga zamonaviy ta'lim talablaridan kelib chiqib ixtisoslik fanlaridan yaratiladigan o'quv adabiyotlariga qo'shimcha funksiyalarni kiritdik.

1. Rag'batlantiruvchi funksiya.

2. Raqamli ta'lim resurslari va ta'limiy platformalar bilan ishlashga undovchi funksiya.

3. O'quv materialini mustaqil o'rganishga undovchi funksiya.

4. O'z-o'zini boshqarish funksiyasi.

5. Modullilik funksiyasi.

6. Ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish funksiyasi.


Shuningdek ixtisoslik fanlari uchun zamonaviy o'quv adabiyotlariga qo'yiladigan qo'shimcha talablarni ham ishlab chiqdik.

Biz oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan ixtisoslik fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy ta'minotining umumiy tuzilmasini ishlab chiqdik (1-rasm). Ushbu tuzilmada ixtisoslik fanini o'qitishda qo'llaniladigan barcha o'quv adabiyotlarining turlari keltirilgan.

Tuzilmada biz tadqiqotlarimiz olib borilgan oldingi ta'lim tizimi bo'yicha ixtisoslik fanlarining o'quv-uslubiy ta'minoti, hozirgi kredit ta'lim tizimida majburiy fanlar blokiga kiruvchi talabalarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan fan o'quv-uslubiy ta'minoti nazarda tutilgan. Ikkala ta'lim tizimida ham talaba kasbiy kompetensiyani shakllantiruvchi fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlarining funksiyasi va ularga qo'yiladigan zamonaviy ta'lim talablari bir xil ekanligini qayd etish lozim.


Tadqiqotimiz aynan ixtisoslik fanlarini o'qitishda foydalaniladigan turli shakldagi mustaqil o'quv materiallarini ishlab chiqish va amalda joriy etishga qaratilganligi uchun biz dastlab "O'quv materiali" tushunchasini aniqlashtirdik.

Umumiy holda o'quv adabiyotlarining asosiy mazmunini o'quv materiali tashkil qiladi. Unda bilim, ko'nikma, malakalarni egallashdagi faoliyatni tashkil qilishning dinamik modeli ko'rsatilishi kerak.



**1-rasm. Ixtisoslik fanlarining o'quv-uslubiy ta'minoti**

Yuqoridagi nazariy tahlillar hamda hozirda ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan o'quv-uslubiy adabiyotlar va o'quv materiallarini o'rganish asosida biz o'quv materiallarini ikki guruhga ajratdik (2-rasm).




**2-rasm. O'quv materiallari turlari**

Birinchi guruhda o'quv adabiyotining asosiy mazmunini ifodalaydigan yozma tuzilma ko'rinishida taqdim etiladigan o'quv materiallari kiradi.

Ikkinchi guruhga biron bir faoliyat yoki jarayon mazmunini ochib beruvchi ta'limiy maqsadni amalga oshirish maqsadida, ishlab chiqiladigan mustaqil tuzilmaga ega bo'lgan turli shakldagi o'quv materiallarini kiritdik.

Ikkala turdagi o'quv materiallari ham o'zida nazariy, tajribaviy-amaliy, qo'shimcha va mustaqil ish o'quv materiallarining birini yoki bir nechtasini birgalikda o'zida qamrab olishi mumkin.

Biz asosan ixtisoslik fanlaridan o'qitish jarayonida samara beradigan mustaqil tuzilmaga ega bo'lgan turli shakldagi o'quv materiallarini ishlab chiqish va amalda joriy etish bo'yicha tadqiqotlarni olib bordik.



**3-rasm. Turli shakldagi o'quv materiallari**


Quyidagi sxemada biz tomondan tadqiqotlar o'tkazilgan o'quv materiallarining shakllari keltirilgan (3-rasm).

Ixtisoslik fanini o'qitishda qo'llaniladigan modulli, keys stadi, namunaviy, yo'naltiruvchi, tayanch ma'ruza shakllaridagi o'quv materiallari hamda raqamli texnologiya asosida yaratiladigan o'quv materiallarining afzalliklari va imkoniyatlari asoslab berildi.

Oliy ta'lim muassasasida o'qitiladigan ixtisoslik fanlaridan ishlab chiqiladigan turli shakldagi o'quv materiallarini ishlab chiqishda zamonaviy talablarni inobatga olish, uning o'quv jarayonidagi samaraligini va ahamiyatini o'rganish, ta'lim jarayonida talabalarining mustaqil bilim olish va kasbiy faoliyatini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish muhimligi asoslab berildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Ixtisoslik fanlaridan turli shakldagi o'quv materiallarni ishlab chiqish va amalda joriy etish metodikasi**" deb nomlangan bo'lib, unda oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan ixtisoslik fanlaridan ishlab chiqiladigan o'quv materiallari tarkibi va mazmuni, turli shakldagi o'quv materiallaridan foydalanib ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayonining takomillashtirilgan modeli va metodikasi bayon qilingan.

Ixtisoslik fanini o'qitishda qo'llaniladigan turli shakldagi o'quv materiallarini quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega bo'ladi (4-rasm).




**4-rasm. O'quv materialining tarkibiy tuzilmasi**

Qaysidir o'quv materialida bironta komponent berilmaydi yoki ko'proq ma'lumot taqdim etilishi mumkin. Masalan, tayanch ma'ruzada ko'proq nazariy ma'lumot taqdim etilsa, yo'naltiruvchi o'quv materiali amaliy mashq yoki topshiriqlarga e'tibor yo'naltiriladi. Namunaviy va modulli o'quv materiallari tuzilmadagi barcha komponentlarni o'zida qamrab oladi. Turli shakldagi o'quv materiallari talabalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va amaliy harakatlari aniq mantiqiy ketma-ketlikda tashkil etishi, ularning o'quv materiallari bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini egallashga yordam berishi lozim.

Tadqiqotchilar fikricha, turli shakldagi yangi o'quv materialini ishlab chiqishdan maqsad o'qituvchi va talaba o'rtasida fikrlarning mantiqiy bayoni jarayonida o'zaro bog'liqlikni ta'minlash, talabani mustaqil fikrlashga va ishlashga o'rgatish, ularning tafakkurini rivojlantirish, faoliyatida ijodiy yondashish ko'nikmalarini hosil qilish va zamonaviy bilim asoslarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilishi kerak.

Turli shakldagi o'quv materiallarini ishlab chiqish jarayonida o'quv materiallari mazmuni loyihalashtiriladi, bunda o'quv jarayonining tarkibiy qismi ekanligi hisobga olinadi va ma'lum bilim yoki amaliy faoliyat sohasini aks ettiradi. Shu sababli o'quv materiallarining mazmuni ta'lim oluvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishni nazarda tutishi, zarur ma'lumotlar maxsus tanlanishi va ta'lim vazifalaridan kelib chiqqan holda qayta ishlanishi lozim.

Izlanishlar natijasida biz tomonimizdan ixtisoslik fanlarini o'qitishda turli shakldagi o'quv materiallarni ishlab chiqish va ulardan foydalanib o'qitish jarayoni modeli ishlab chiqildi (5-rasm) va uning har bir komponenti mazmuni ochib berildi.



5-rasm. Ixtisoslik fanlarini o'qitishda turli shakldagi o'quv materiallarini ishlab chiqish va ulardan foydalanib o'qitish jarayoni modeli

Ishlab chiqilgan model o‘zaro bog‘liq maqsadli, ilmiy, tashkiliy-mazmunli, jarayonli va natijaviy bloklardan iborat.

Modelning mazmunli maqsadli blokida yengil sanoat sohasi uchun davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida muhandis texnologlarni tayyorlashga qo‘yilgan talablar, ularning malaka talablari, xususan ixtisoslik fanlarini o‘qitishda qo‘yilgan talablari keltirilgan. Ixtisoslik fanlaridan yaratiladigan o‘quv adabiyotlariga qo‘yiladigan zamonaviy talablar va funksiyalari, shuningdek ularni yaratish tamoyillari yoritilgan.

Tashkiliy blokda ixtisoslik fanlaridan turli shakldagi o‘quv materiallarini ishlab chiqish jarayoni bosqichma bosqich ochib berilgan. Shuningdek “Tikuv buyumlari texnologiyasi” fani bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘quv materiallarining shakllari keltirilgan.

Jarayonli blokda ixtisoslik fanlarni o‘qitishda turli shakldagi o‘quv materialining xususiyatidan kelib chiqib tanlangan o‘qitish metodlari, shakllari va vositalari berilgan. Bugungi kunda interfaol ta‘lim metodlaridan foydalanish o‘rganilayotgan ma‘lumotlarni talabalarga samarali yetkazish, ularning o‘quv va kognitiv faolligini oshirish, o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish vositalaridan biri hisoblanadi.

Modelning to‘rtinchi natijaviy blokida ixtisoslik fanlarini turli shakldagi o‘quv materiallaridan foydalanib mualliflik metodikasi asosida o‘qitish jarayoni natijasi bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashni nazarda tutadi.


Ushbu bobda biz tomondan “Tikuv buyumlari texnologiyasi” fanini modulli, keys stadi, namunaviy, tayanch ma‘ruza, yo‘naltiruvchi hamda raqamli o‘quv materiallaridan foydalanib o‘qitish metodikasi ishlab chiqildi va amalda joriy etildi. Bunda har bir mashg‘ulotning ishlanmalari va didaktik ta‘minoti ishlab chiqilib, o‘qitish jarayoni tashkil qilindi (6-rasm).

Birinchi bosqichda har bir modulning (faoliyatning) o‘quv maqsadi hamda har bir mashg‘ulotning aniq ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi o‘quv maqsadi belgilanishi lozim. O‘quv maqsadi aniq qo‘yilgandan keyin nazariy va amaliy mashg‘ulotlari xususiyatlaridan kelib chiqib o‘quv materiallari shakllari tanlanadi.

Ikkinchi bosqichda modul (faoliyat) yoki mavzu mazmunidan kelib chiqib turli o‘quv materillari ishlab chiqiladi. Nazariy mashg‘ulotlar ko‘proq namunaviy va tayanch ma‘ruza shaklidagi, amaliy mashg‘ulotlarda esa keys stadi, yo‘naltiruvchi o‘quv materiallarini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Mustaqil ish mashg‘ulotlarida esa raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan o‘quv materiallari keng qo‘llaniladi.

Uchinchi bosqichda “Tikuv buyumlari texnologiyasi” fanidan ishlab chiqilgan o‘quv materiallari asosida mashg‘ulotlar ishlanmalari va ularni o‘tkazish metodikasi ishlab chiqiladi.





**6-rasm. “Tikuv buyumlari texnologiyasi” fanini turli shakldagi o‘quv materialini qo‘llab o‘qitish jarayoni**

To‘rtinchi bosqichda biz tomondan oliy ta’lim muassasalarida ixtisoslik “Tikuv buyumlari texnologiyasi” fanini turli shakldagi o‘quv materiallarini qo‘llab o‘qitish bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlar, individual, kichik guruhlarda va guruhiy shakllarda o‘tkazildi. Mashg‘ulotlarda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan va metodlaridan foydalanildi.

Beshinchi bosqichda “Tikuv buyumlari texnologiyasi” fanini turli shakldagi o‘quv materiallarni qo‘llab o‘qitish bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlar ishlab chiqilgan mezonlar va darajalarda baholandi. Ushbu bosqichlar ketma-ketligida “Tikuv buyumlari texnologiyasi” fanini turli shakldagi o‘quv materiallarini qo‘llab o‘qitish metodikasi takomillashtirildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobini **“Ixtisoslik fanlaridan ishlab chiqilgan turli shakldagi o‘quv materiallarni amalga joriy etish va pedagogik samaradorligini aniqlash bo‘yicha tajriba-sinov ishlari”** deb nomlangan bo‘lib, unda pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish, natijalarga matematik statistik ishlov berish bayon qilingan.

Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan ixtisoslik fanlaridan o‘quv materiallarini tayyorlash mushkul va mas’uliyatli ish bo‘lib, pedagogdan yuksak mahoratni talab qiladi.

Shuning uchun ham har bir yaratilgan yangi o'quv materialini sifatini baholash va uning pedagogik samaradorligini aniqlash bo'yicha tajriba sinov ishlarini o'tkazish lozim. Bizning fikrimizcha, ixtisoslik fanlaridan o'quv materialini sifatini baholash uchun quyidagi muhim jihatlarni e'tiborga olish katta ahamiyatga egadir. Birinchidan, o'quv materialining qo'llanishida aniqlangan samaradorlik asosiy mezon hisoblanadi. Ikkinchidan o'quv materialini abstraktlik va murakkablik darajasi shunday baholanishi kerakki, talabalarning bilimi, qobiliyati va ko'nikmalarining rivojlanishini inobatga olishi kerak. Uchinchidan, o'quv materialining keng miqyosda qo'llanishiga qadar, unga to'liq, obyektiv baho berilishi lozim.

Hozirgi paytda ixtisoslik fanlaridan turli shakldagi o'quv materiallari ishlab chiqilib amalda joriy etilmoqda. Biz tomondan ixtisoslik fanlardan yaratilib ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan turli shakldagi, ya'ni modulli, keys stadi, yo'naltiruvchi, tayanch ma'ruza va raqamli texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan o'quv materiallarini baholash bo'yicha tajriba sinov o'tkazilgan oliy ta'lim muassasalarida anketa so'rovlar o'tkazildi. Bir vaqtning o'zida talabalarining ixtisoslik fanlaridan turli shakldagi o'quv materiallari bilan mustaqil ishlash bo'yicha ko'nikmalari tekshirildi. Ixtisoslik fanlar o'qituvchilaridan o'tkazilgan anketa so'rov jarayonida "Yengil sanoat texnologiyasi va jihozlari" ta'lim yo'nalishiga dars beradigan 52 nafar ixtisoslik fanlari o'qituvchilari ishtirok etishdi. O'tkazilgan so'rov natijalari "Tikuv buyumlari texnologiyasi" "Yengil sanoat buyumlarini ishlab chiqarish jihozlari" fanlaridan foydalanilayotgan turli shakldagi o'quv materialining fanni mustaqil o'rganishga, talabalarning fikrlashi va ijodiy qobiliyati rivojlanishiga hamda nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llashga yo'naltirilganligi yuqori darajada, talabalarni mustaqil ishlashga undovchi mashqlar, topshiriqlar, keyslar, savollarning kamligi, raqamli texnologiyalarga asoslangan o'quv materiallarining samarasi ijobiy ekanligini ko'rsatdi.

Biz tomondan yuqoridagilarni inobatga olib o'tkazilgan izlanishlar natijasida "Tikuv buyumlari texnologiyasi" fanidan ishlab chiqilgan modulli, namunaviy, keys stadi, tayanch ma'ruza va raqamli texnologiyalarga asoslangan o'quv materiallarining pedagogik samaradorligini aniqlash bo'yicha tajriba-sinovlar olib borildi.

"Tikuv buyumlari texnologiyasi" fanini o'qitishda turli shakldagi o'quv materiallari asosida o'qitish samaradorligini tajribaviy tekshirish va baholash bo'yicha Buxoro muhandislik-texnologiya institutida (BuxMTI), Jizzax politexnika institutida (JizPI), Urganch Davlat universiteti (UrgDU)da amalga oshirildi. Tajribada BuxMTIdan 157 nafar, JizPIDan 158 nafar, UrgDUDan 106 nafar jami barcha oliy ta'lim muassasalaridan 422 nafar talaba ishtirok etdi.

Tanlangan oliy ta'lim muassasalarida "Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari" ta'lim yo'nalishida olib borilgan pedagogik tajriba sinov ishlarini o'tkazishda quyidagi tashkiliy ishlar amalga oshirildi:

tajriba-sinov guruhlaridan mashg'ulot olib boradigan ixtisoslik fan o'qituvchilari "Tikuv buyumlari texnologiyasi" fanidan biz tomondan ishlab chiqilgan turli shakldagi o'quv materiallari bilan ta'minlandi;

mashg'ulotlarni samarali tashkil qilish bo'yicha seminar o'tkazilib, metodik tavsiyalar berildi;


tajriba sinov ishlari bo'yicha "Tikuv buyumlari texnologiyasi" fanidan ishlab chiqilgan modulli, namunaviy, keys stadi, tayanch ma'ruza va raqamli texnologiyalarga asoslangan o'quv materiallarining o'zlashtirish bo'yicha talabalar bilim va ko'nikmalarini baholash testlari va amaliy topshiriqlar ishlab chiqildi.

### 1-jadval

#### Barcha viloyatlardagi oliy ta'lim muassasalari bo'yicha tajriba sinov ishlari natijalari

OTMLar nomi	Barcha OTMLar bo'yicha guruhlar		Jami talaba soni	O'zlashtirish ko'rsatkichi			O'rta cha baho	Samaradorlik
				A'lo	Yaxshi	Qoniqarli		
<b>BuxMTI, JizPI, UrDU</b>	Tajriba guruhi	Tajriba boshida	218	34	81	103	3.68	1.14
		Tajriba oxirida	217	82	89	46	4.18	
	Nazorat guruhi	Tajriba boshida	204	34	73	97	3.69	1.02
		Tajriba oxirida	203	41	83	79	3.81	

Talabalarining "Tikuv buyumlari texnologiyasi" fanidan boshlang'ich tayyorgarlik darajasini aniqlash va uni keyingi olinadigan natijalar bilan solishtirish uchun kirish nazorat testi va amaliy topshiriqlarni bajartirish jarayoni o'tkazildi va tajriba guruhidan 218 va nazorat guruhidan 204 nafar talabaning boshlang'ich tayyorgarlik darajasi aniqlandi. Unga ko'ra, har ikki guruh talabalarining boshlang'ich tayyorgarligi darajasi deyarli bir xil bo'ldi (7-rasm). Tjriba oxirida esa ko'rsatkichlar o'zgargan.



**7-rasm. Barcha viloyatlardagi OTMLar bo'yicha tajriba va nazorat guruhlarida tajriba boshi va oxiridagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarining umumiy diagrammasi**

Biz tomondan ishlab chiqilgan modulli, namunaviy, keys stadi, tayanch ma'ruza va raqamli texnologiyalarga asoslangan o'quv materiallarini qo'llab "Tikuv buyumlari texnologiyasi" fanidan o'qitishning samarali ekanligi tajriba-sinov ishlarining natijalarida o'z tasdig'ini topdi, unga ko'ra tajriba-sinov guruhlarida talabalarining a'lo va yaxshi baholar olganlar soni oshganini ko'rish mumkin.

Tajriba va nazorat guruhlari samaradorlik ko'rsatkichlari farqi  $1,14 - 1,02 = 0,12 * 100 = 12\%$  ni tashkil qildi. Shunday qilib, tadqiqot davomida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari yakunida tajriba guruhlari talabalarining ixtisoslik fanlarni o'zlashtirganlik darajalari nazorat guruhi talabalarinikiga nisbatan 12% ga yuqori ekanligi matematik-statistik metoddan foydalanib isbotlandi.

### UMUMIY XULOSALAR VA TAVSIYALAR

Oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan ixtisoslik fanlaridan turli shakldagi o'quv materiallarini ishlab chiqish va amalda joriy etish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar quyidagi xulosalar qilish imkonini berdi:

1. Oliy ta'limda o'quv adabiyotlarining zamonaviy avlodini yaratish muammolariga qaratilgan ilmiy ishlardagi "darslik", "o'quv qo'llanma" va "o'quv material" tushunchalari, uning o'quv jarayonidagi tutgan o'rni, roli va ahamiyati, foydalanilayotgan ixtisoslik fanlar o'quv adabiyotlarining kamchiliklari o'rganildi. Ixtisoslik fanlaridan yaratiladigan o'quv adabiyotlari bilimlarni talabalar tomonidan

mustaqil o'zlashtirib olishga, ularda ko'nikma va malakalarini shakllantirishga, kerakli axborotni mustaqil izlash va topishga va amaliy faoliyatda qo'llashga o'rgatishga hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi asoslab berildi.

2. Ixtisoslik fanlarining o'quv metodik ta'minoti tuzilmasi ishlab chiqilib, o'quv adabiyotlariga qo'yiladigan qo'shimcha talablar va rag'batlantiruvchi, mustaqil o'rganishga undovchi, o'z-o'zini boshqarish va ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi funksiyalari aniqlashtirildi.

3. Ixtisoslik fanlaridan turli shakldagi o'quv materiallarini ishlab chiqish va amalda joriy etish imkoniyatlari aniqlashtirildi. Ixtisoslik fanlarini o'qitishda modulli, namunaviy, keys stadi, yo'naltiruvchi, tayanch ma'ruza va raqamli texnologiyalarga asoslangan o'quv materiallarining ishlab chiqilishi va ta'lim jarayoniga joriy etilishi orqali malakali mutaxassislar tayyorlash sifati yaxshilanishi asoslab berildi.

4. O'tkazilgan izlanishlar shuni ko'rsatdiki ixtisoslik fanlaridan turli shakldagi o'quv materiallaridan foydalanish nafaqat talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish, balki muammoni tahlil qilish va aniqlash, o'z pozitsiyasini aniq shakllantirish, kasbiy va hayotiy muammolarni hal qilish, o'z-o'zini baholash, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

5. Ixtisoslik fanlaridan raqamli texnologiyalarga asoslangan o'quv materiallaridan foydalanilganda mashg'ulotlarini yuqori sifatli darajada o'tkazish; ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'zaro yaqinlashtirish; talabaning axborotli-ta'lim resurslari bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish; mobil ilovalar va platformalar orqali talabaga mustaqil o'rganish imkoniyatlari yaratiladi;

6. Oliy ta'lim uchun ixtisoslik fanlaridan turli shakldagi o'quv materiallaridan foydalanib o'qitish jarayoni modeli ishlab chiqildi. Modelning o'zaro bog'liq maqsadli, ilmiy tashkiliy, jarayonli va natijaviy bloklari mazmuni ochib berildi.

7. Oliy ta'lim muassasalarida "Tikuv buyumlari texnologiyasi" fanini modulli, namunaviy, keys stadi, yo'naltiruvchi, tayanch ma'ruza va raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan o'quv materialidan foydalanib, o'qitish metodikasi ishlab chiqildi hamda amalda joriy etildi. Shuningdek, dars ishlanmalari, axborot metodik ta'minoti ishlab chiqildi.

8. "Tikuv buyumlari texnologiyasi" fanidan ishlab chiqilgan modulli, keys stadi, namunaviy, yo'naltiruvchi, tayanch ma'ruza va raqamli texnologiyalarga asoslangan o'quv materiallaridan ta'lim jarayoniga foydalanish bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari tajriba-sinov guruhlarida a'lo va yaxshi baholar oshganini, samaradorlik ko'rsatkichi esa 12 foizga ortganini ko'rsatdi.

### **Olingan natijalar asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi.**

1. Ixtisoslik fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlarini yaratishda qo'yiladigan qo'shimcha ishlab chiqilgan talablarni va zamonaviy funksiyalarini inobatga olish.

2. “Tikuv buyumlari texnologiyasi” fanidan ishlab chiqilgan modulli, keys stadi, namunaviy, tayanch ma’ruza va raqamli texnologiyalarga asoslangan o‘quv materiallarini keng joriy etish.

3. “Tikuv buyumlari texnologiyasi” va “Tikuvchilik buyumlarini loyihalashtirishning avtomatlashtirilgan tizimi” fanlaridan yaratilgan elektron ta’lim resurslaridan ta’lim jarayonida samarali foydalanish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
DSc.03/30.12.2019.Ped 48.01 ПРИ ИНСТИТУТЕ  
РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

---

**БУХАРСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ**

**ХУДОЙБЕРДИЕВА СИТОРА НИЗОМИДДИН КИЗИ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗРАБОТКИ И ВНЕДРЕНИЯ  
УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛОВ ПО СПЕЦИАЛЬНЫМ ДИСЦИПЛИНАМ**

**13.00.05 – Теория и методика профессионального образования**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под номером V2021.1.Phd/Ped2348.**

Диссертация выполнена в Бухарском инженерно-технологическом институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.ipitvet.uz](http://www.ipitvet.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz))

**Научный руководитель:**

**Олимов Кахрамон Танзилович**  
доктор педагогических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Исмаилова Зухра Карабаевна**  
доктор педагогических наук, профессор

**Куйсинов Одил Алмуротович**  
доктор педагогических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Каршинский государственный университет**

Защита диссертации состоится «19» марта 2025 года в 14:00 на заседании Научного совета по присуждению учёных степеней DSc.05/29.12.2023.Ped.48.01 при Институте развития профессионального образования (Адрес: 100095, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Зиё, 76 (Тел.: (+99871) 246-92-17, факс: (+99871) 246-90-37, E-mail: [pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz](mailto:pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института развития профессионального образования (Адрес: 100095, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Зиё, 76 (Тел.: (+99871) 246-92-17, факс: (+99871) 246-90-37).

Автореферат диссертации разослан «\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года  
(протокол реестра №\_\_ от «\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года.)

**Р.Х. Джураев**  
Председатель Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
д.п.н., академик

**С.Ю. Ашурова**  
Секретарь Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
д.п.н., профессор

**Х.Ш. Кадиров**  
Председатель Научного семинара  
при Научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.п.н., доцент



## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность темы исследования.** Во всём мире большое внимание уделяется развитию высшего образования, обеспечению учебного процесса современной литературой, разработке учебных материалов на базе лучших практик и технологий, а также широкому применению цифровых образовательных ресурсов. В этом плане ведется эффективная деятельность в таких образовательных системах престижных научно-исследовательских центров развитых стран как P.Debrai-Retzen «Talented Student Teacher Model» (Франция), «US Merit» (США). В связи с этим, особую роль в модернизации высшего образования играют создание инновационного учебно-методического обеспечения, разработка и внедрение в практику цифровых образовательных ресурсов.

В мире проводятся исследования, направленные на разработку современных учебно-методических комплексов для системы высшего образования и повышение качества образовательного процесса с использованием цифровых инструментов, широкое использование инновационных технологий в учебном процессе, разработку учебных материалов с акцентом на самостоятельное обучение. Также в обществе, где стремительно развивается наука и широко внедряются современные информационно-коммуникационные средства, быстрое обновление знаний в различных областях науки ставит перед студентами задачу быстрого приобретения знаний, умений и навыков, а также развития компетенций регулярного и самостоятельного обучения и поиска. Это требует разработки различных форм современных учебных материалов для высшего образования и их практического внедрения, обеспечивающих возможности самостоятельного обучения и получения знаний, а также выполняющих развивающую функцию.

В республике проводится масштабная работа по подготовке высококвалифицированных кадров, обладающих достаточным интеллектуальным потенциалом, владеющих современными достижениями науки, а также способностями самостоятельного размышления и наблюдения, обеспечению образовательного процесса современной учебной литературой и электронными образовательными ресурсами. Для повышения качества образования на новый уровень важное значение имеет повышение эффективности преподавания профильных предметов в высших учебных заведениях при подготовке студентов к специализации, создание современной учебно-методической литературы, улучшение информационно-методического обеспечения образовательного процесса, разработка и внедрение эффективных цифровых инструментов в приобретении знаний в условиях цифровизации. В принятой в нашей стране Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года указаны такие

приоритетные задачи как интенсификация интеллектуального прогресса, информационно-методическое обеспечение образовательного процесса, эффективная организация научно-инновационной деятельности, а также развитие интеграции науки, образования и производства. В реализации этих задач остается актуальным создание новой учебной литературы по специальным дисциплинам, преподаваемым в технических вузах, разработка и практическое внедрение различных форм эффективных учебных материалов и цифровых образовательных ресурсов.

